

5- sinf

”Tabiiy geografiya”

Mavzu: Yer po`stining harakatlari

Dars maqsadi:

- A) Mavzu bilan mustaqil ishlashga o`rgatish, yer p`ostining harakatlari, uning natijasida hosil bo`lgan hodisalar bilan tanishtirish
- B) Geografik bilimlarga bo`lgan qiziqishlarini oshirish yer yuzasida yirik relief shakllarini joylashishini tahlil qilish geografik xaritalar bilan ishlay olish ko`nikmalarini shakllantirishda davom etish
- C) O`quvchilarni mustaqil fikr yuritishni eng yaxshi axloqiy sifatlarni, olgan bilimini hayot bilan bog`lay olishni vatanni uning tarixi madaniyati urf-odatlarini eng asosiysi insonni hurmat qilishni ilmiy dunyo qarajasini estetik didni kasb-hunarga qiziqishni iqtisodiy huquqiy ekologik madaniyatni tarkib toptirishni tarbiyalash

Dars usuli:

Dars jihozi: Atlas, globus, yarimsharlar xaritasi, O`zbekiston xaritasi, dunyo siyosiy xaritasi, bolalar ensiklopediyasi, testlar, internet materiallari.

Salomlashish:

Assalom ona-yurt tonglar o`lkasi

Ta`rif tavsifining yo`q nihoyasi

Senga bag`ishlanur muqaddas qo`shiq

Bu o`zbek xalqining o`z madhiyasi

Darsning borishi:

O`quvchi Salimova L geografiya darsi ekanligini she`r bilan ifodalaydi.

Qadimda erotosfen

Atagan fan o`sh men

Yunoncha so`z “Geo Yer”

“Grafo” yozaman der

O`zbekchaga o`girsak

Yerning tasviri demak

Buni barcha o`quvchi

Albat bilmog`I kerak

Bor mening ikki jonim

Yer shari sharaf shonim

Vujudim tabiatdir

Dilimda sof niyatdir

Bir tarmog`im tabiat

Shaydosi bo`lsa agar

Ikkinchi bilim konda

Jam xo`jalik faoliyat

1. Tashkiliy qism.

Navbatchi o`quvchi axboroti

Dars shiori: Tabiatni asrab avaylash bizning burchimiz

Sinf o`quvchilari 3 guruhga ajratiladi

Guruh sardorlari tayinlanadi va ular o`z guruhlarini tanishtiradilar

1 guruh “Globus”

2 guruh”Atlas”

3 guruh”Xarita”

Yangiliklar

Ob-havo dunyodagi iqtisodiy siyosiy tabiiy voqea hodisalarga oid O`quvchi Aminova Madina 2009-yil “**Qishloq hayoti va farovonligi yili**” deb e`lon qilinganligini she`r bilan ifodalaydi:

Bir tomoni keng o`tloq

Bir tomoni qorli tog`

Go`zal va nurli makon

Mening aziz qishlog`im

O`qituvchi: O`quvchilar biz geografiya fanini qahcondan boshlab o`rganamiz, ha, albatta bolalar biz bu fanni bog`cha yoshdan boshlab o`rganamiz.

Tabiat kitobi so`zlaydi:

Ey bolajon qiynama o`zni

Kel bag`ringa ochgancha ko`zni

Butun olam keng tabiatni

Quyosh, yer oy ham koinotni

Bilmoq bo`lsang sahifamni och

Ilm ummonlariga yoy quloch

Man tabiat borliqman

Barcha fanga yorliqman

O`qituvchi rasmlar konkursini e`lon qiladi. Har bir guruhdan o`quvchilar mavzuga oid rasm chizishlari kerak.

2.O`tilganlarni mustahkamlash.

Topishmoq:

Uning bag`ridadir hatto suv qobiq

Yuzin silab turar hatto havo qobiq

Tabiat bergandir qattiq fazilat

Qari boyliklarga limmo-lim qat-qat

O`tilgan mavzu: Shu topishmoqning javobi bo`ladi

Guruhlarga o`tilgan mavzu yuzasidan ikkitadan savol beriladi

1. Litosfera nima?


2. Yer po`sti necha kilometr

3. Litosferaga qayerlar kiradi

4. Yer po`sti necha qavatdan iborat

5. Okeanlarda yer po`sti necha qavatdan iborat?

6. Cho`kindi jinslar qanday hosil bo`ladi?



Mavzu mustahkamlanib guruhlar rag'batlantiriladi

3.Yangi mavzu:

Yer po'stining harakatlari


Reja: 1. Yer po'sti harakatlari va relief

1. Vulqonlar va ularning hosil bo'lishi
2. Yer qimirlash va ularning sodir bo'lish sabablari

Tayanch so'z va tushunchalar



Vulqon , magma, lava, seysmograf, seysmogramma, geyzer, gipotsentr, epitsentr.

Mantiyadagi harakatlar ta'sirligi yer po'stining ayrim joylari asta-sekin cho'kadi. Boshqa qismlar esa ko'tariladi. Cuqur cho'kkan joylarni suv qoplab okean va dengizlar hosil qilgan. Ko'tarilgan joylar chuqurlik bo'lib materikni ,orol va yarimorolni paydo qilga.Lekin vaqt o'tishi bilan okean va dengizlar osti ko'tarilib quruqlikka aylanishi, aksincha, quruqliklar pasayib o'rmin suv bosib dengizfa aylanishi mumkin. Biroq bunday o'zgarishlar o'nlab, yuzlab million yillarda ro'y beradi.Bizning mamlakatimiz O'zbekiston o'rni ham o'ttiz millon yil ilgari dengizdan iborat bo'lgan .Biz bularni tog` jinslari orasidan topiladigan dengizda yashagan hayvon qoldiqlari chig'anoqlar va suyaklarni o'rganib bilamiz.Yer po'stining gorizonta harakati natijasida yer qatlamlari bukilib burmali tog'larni vodiylarni chuqur oken botiqlarini hosil qiladi.Yer po'stida yoriqlar hosil bo'ladi.Masalan , Farg'ona vodiysi Tyanshan tog'lari Shunday hosil bo'lgan.




Yer yuzasidagi barcha past balandliklar tog`lar tekislik qir vodiylar soylar va boshqalar relief deb ataladi. Yer po`stida biror joy yorilsa o`sha hudud tagida bosim pasayib chuqurdagi moddalar suyuqlashib qaynoq jinsga aylanadi. Uni magma deb ataladi. U yer yoriqlarida yuqoriga ko`tariladi va yer yuziga oqib chiqadi. Yer yuziga oqib chiqqa qaynoq suyuq modda lava deyiladi. Lava asta soviq tepa va tog`larni hosil qiladi. Bunday tepa va tog`lar vulqonlar deb ataladi. Vulqonlar otilganda yer qimirlaydi portlashlar ro`y beradi gumburlagan ovozlari eshitiladi. Vulqon og`zidan kullar, gazlar, toshlar otilib chiqadi.





Vulqonlar o'tilib turadigan o'lkalarda va yer po'stida yoriqlar bor joylarda issiq buloqlar ham uchrydi. Ular hali sovib ulgurmagan lavalalar orasidan va chuqur yoriqlardan chiqqani uchun qaynoq bo'ladi. Ba'zi issiq buloqlarda suv vaqti-vaqti bilan favvora kabi o'tilib turadi. Bunday buloqlar geyzerlar deb ataladi. Yer po'sti plitalari tutashgan burmalanish yorilish, uzilish joylarda tabiatning eng dahshatli hodisalaridan biri yer qimirlash sodir bo'ladi. O'zbekistonning kattagina qismi ayniqsa Sharqiy, Janubiy tog'li, tog'oldi qismlari yer qimirlaydigan zonaga kiradi. Yer qimirlash yer po'stinining chuqur qismida tog' jinslari qatlamlarida to'satdan ro'y beradigan sinish siljish uzilish natijasida sodir bo'ladi. Yer qimirlash boshlanadigan bu joy yer qimirlash o'chig'i giposentr deyiladi. Yer qimirlash ustidagi joy yer markazi episentr deb yuritiladi.



Yer qimirlash markazida eng vayronagarchilik bol`adi.Yer qimirlash harakatlari juda sezuvchan asbob seysmograflarda avtomat ravishda yozib olinadi.Seysmogrammalarni tahlil qiluvchi olimlar yer qachon qimirlaganini yer qimirlash o`cog`i qancha chuqurda ekanini yer qimirlash markazida qanday kuch bilan qimirlaganini aniqlashadi.Olimlar yer qimirlash kuchini uning binolar va relief ta`siriga qarab 12 balda aniqlashadi.Bir va ikki balli yer qimirlashni odamlar sezmaydi.3,4,5 balli kuchda bo`lganda ancha sezilarli bo`lsa

ham imoratlarga zarar yetmaydi.6 7 bal qimirlaganda uy devorlarida yoriqlar paydo bo`ladi

8 balda devorlar yorilib uylar buzilishi mumkin.9 bal bo`lganda devorlar qulaydi tomlar bosib qoladi.10 bal yer qimirlasa imoratlar buzilib ketadi.Yerda kengligi 1 metrgacha yoriqlar paydo bo`ladi. 11-12 bal bo`lganda relief o`zgaradi yerda tik turgan narsa qolmaydi.Hozirgi vaqtda olimlar yer qimirlashni oldindan aytish ustida tinimsiz ish olib bormoqdalar.

Zilzila

Yer osti tebranishlari va yer yuzasining silkinishi zilzila deyiladi. Sayyoramizning deyarli barcha joylarida bilinar-bilinmas, yoki qattiq zilzilalar bo'lib turadi. Qattiq zilzilalar katta talafotlar keltirib ancha ayanchli oqibatlariga olib keladi. Shu sababli ham butun dunyoda ko'plab olimlar tabiatning bu hodisasini o'rganish bilan bandlar.



◀ Har yili Yer yuzida millionga yaqin zilzila bo'ladi, lekin ularning ko'pchiligi sezilarli bo'lmaydi. Haqiqatdan ham kuchli zilzilalar, keng miqyosdagi buzilishlarga olib kelib, taxminan ikki haftada bir marta sodir bo'lishi mumkin. Baxtimizga, ularning ko'pchiligi fojiaiy oqibatlariga olib kelmaydi. Okean tagidagi zilzila sunamini hosil qiladi.




▶ Ko'chib yurgan yirik yer qobig'i plitalari bir-biri bilan urilganda zilzila hosil bo'ladi. Bir plata boshqasining tagiga kiradi, chetlari buklanib, yer qobig'ida katta yoriqlar paydo bo'ladi. Yer osti silkinishi paydo bo'lgan joyni zilzila o'chog'i deyiladi. Zilzila o'chog'i yerning chuqur qatlamida 70–700 km chuqurlikda joylashgan bo'ladi. Yer osti zarbalaridan ta'sirlangan yer yuzi maydoni zilzila epitsentri deb ataladi.





◀ Soat 5:23 da to'xtab qolgan soat millari Toshkent tarixidagi dahshatli fojiani yodga solib turadi. 8 balli yer silkinishi 1966-yilning 26-aprelida yerni larzaga keltirdi. Keyinchalik esa bir necha oy davomida tinmasdan zilzila o'zini eslatib turdi. O'sha unutilmas tongdan keyin ham 1000 dan ortiq qayta sodir bo'lgan yer silkinishlari shahar aholisini bezovta qilib turdi.

▼ Zilzila kuchi Rixter shkalasi yoki 12 ballik seysmik shkala yordamida o'lchanadi. 12 ballik seysmik shkalaga ko'ra, 1 balli zilzila faqatgina maxsus uskunalar yordamida o'lchanadi, 5 balligini esa hamma odamlar sezadi; 8 ballikda – yer yuzasida yirik yoriqlar paydo bo'lib, haykallar qulab ketadi; 10 ballikda – binolar buziladi, temiryo'l relslari qiyshayib, yer ko'chishi kuzatiladi; 12 ballik zilzila eng dahshatlisi bo'lib, hech bir bino buzilmay qolmaydi, daryolar o'zanidan chiqib ketadi, hammayoq ag'dar-to'ntar bo'lib ketadi.



Bilimdon o`yini:

Raqamlar o`rniga o`zbek alifbosining harflarini qo`yib so`zlarini o`qing.

1+19+12+14+18+5+4+17+1=atmosfera

11+8+19+14+18+5+4+17+1=litosfera

6+8+3+17+14+18+5+4+17+1=gidrosfera

Guruhlardan o`quvchilar chiqib raqamlar o`rniga harfalarni yozib so`zlar hosil qiladi. Ushbu so`zlar orqasida 2008-2009-yili ijodiy muhitni rivojlantirish yili deb e`lon qilingan

4. Mustahkamlash

Mavzuni mustahkamlash uchun topishmoq va testlardan foydalanamiz.

1. Silkitar u yer po`stin, nima ekan u do`stim? (zilzila)
2. Uni vulqon otadi, tosh ustida qotadi?(magma)

Vulqonga o`xshaydi-ku, qaynoq suv purkaydu u?(gezer)

3. Portlaydi u erib, qaynab va jo`shib tog` yasaydi lavalarni qo`shib?(vulqon)

4. Usti tekismas cho`qqi va qoyali qir-adirlarga ulkan soyali?(tog`)

Testlar :

1. O`zbekiston o`rni necha yil avvasl dengiz ostida bolgan?
A)30mln y
B)25mln y
C)23 mln y
2. Relyef deb nimaga aytiladi?
A)Okean botiqlariga
B)Yer yuzasidagi barcha past balandliklarga
C) Vodiylarga
3. Chuqurdagi moddalar suyuqlashib qaynoq jinsga aylanadi.Uni.....deb ataladi
4. Yer yuziga oqib chiqqan qaynoq suyuq modda.....deyiladi.
5. Lava sovib tepa va tog`larni hosil qiladi,bularnideyiladi.
6. Vaqti-vaqti bilan otilib turadigan issiq bulioqlar.....deyiladi.
7. Yer qimirlash o`chog`I ustidagi joydeb ataladi.
8. Yer qimirlash boshlanadigan joy ...aytiladi.

Sardorlar bellashuvi:

Komanda sardorlariga qisqa savollar beriladi

1. Osmon bilan yer tutashgan joy
2. Yerning modeli
3. Yerning kichraytirilgan tasviri
4. Geografiyaning ikki tarmog`i
5. Ufqning asosiy tomonlari
6. Bosim bir xil bo`lgan nuqtalarni tutashtiradigan chiziq
7. Havo harorati o`xshash nuqtalarni tutashtiradigan chiziq
8. Qutblardan barobar uzoqlikda o`tkazilgan aylana chiziqlar
9. Shimoliy va janubiy qubni tutashtiruvchi yer yuzidan o`tkazilgan yarim aylana chiziqlar
- 10.Ekvatorga parallel qilib chizilgan aylana chiziqlar
- 11.Yerning qattiq qobog`i
- 12.Yerning suv qobig`i

Rasmlar konkursida ishtirok etgan o`quvcilar ishlari ko`rib baholanadi va rag`batlantiriladi.

5. Baholash

komandalar to`plagan rag`batlarni hisoblab g`oliblarni e`lon qilish

6.Uyga vazifa:

Mavzuni o`qish,yozuvsiz xaritada vulqonlarni belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tabiiy Geografiya 5-sinf P.G`ulomov R.Qurbonniyozov
2. Geografik topishmoqlar. P. Jovdatov
3. Internet ma`lumotlari.